

ALISHER NAVOIYNING MUXLISLARI TOMONIDAN TARTIB BERILGAN DEVONLARI

Mirzakbarova Feruzaxon Zoxidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili 2-bosqich talabasi

e-mail, xujaxmedovzohidjon@gmail.com

+998903662847

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20078161>

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy devonlarining muxlislar tomonidan tuzilgan variantlari tahlil qilinib, ularning matnshunoslik jihatlari yoritilgan. Ayrim devonlarda uchraydigan farqli baytlar, qo'shimcha asarlar va tahririy o'zgarishlar misollar orqali ko'rsatib berilgan. Tadqiqot Navoiy merosining yanada chuqurroq o'rganilishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Siymo, ijod, devon, "Terma devon", "Badoye' ul-bidoya", "G'aroyib us-sig'ar", "Favoyid ul-kibar", manbashunos, g'azallar, zarhal jadvallar, ruboiylar.

Buyuk mutafakkir va so'z san'atkori Alisher Navoiy nafaqat o'z davrining, balki butun turkiy adabiyot tarixining eng yirik siymolaridan biridir. Uning boy ijodiy merosi asrlar davomida nafaqat olimlar, balki oddiy kitobxonlar va shoirning sodiq muxlisleri tomonidan ham e'zozlab kelinadi. Navoiy asarlarining keng tarqalishi va avlodlarga yetib kelishida uning muxlisleri tomonidan tuzilgan devonlar muhim o'rin tutadi. Zero Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "Buyuk bobomiz Alisher Navoiy yaratgan asarlar ma'naviyatimizni yuksaltirishda, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi."

Mazkur devonlar shoir ijodini saqlash, tartibga solish va ommalashtirishda katta xizmat qilgan. Ular ko'pincha turli davrlarda yashagan adabiyot ixlosmandlari tomonidan tuzilib, ayrim hollarda Navoiy asarlarining noyob variantlarini ham o'z ichiga olgan. Shu jihatdan, muxlislar tomonidan tartib berilgan devonlar nafaqat adabiy, balki tarixiy va manbashunoslik nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyatga ega.

Devonga tartib berishda she'rning mavzusiga ham qaraladi. Har bir harf bo'limi boshidaavvalhamd, keyin na't g'azal keladi. Ulardan so'ng nasihat g'azallarga o'tiladi. Alisher Navoiy devontuzishdao'ziga xos yo'l tutgan. Bu haqida o'zining birinchi devoni – "Badoyi' ul-bidoya"ning kirishqismidayozgan: "Necha nav' ishkim, munda mar'iy bo'lubturur, o'zga davovinda ko'rulmaydurur". Bujumlalardan shoir boshqa devonlarda amalda bo'lmagan tartibni joriy etganini ma'lumqilganinibilishimiz mumkin. "Avval budurkim, har kishikim devon tartib qilibdurur, o'ttiz ikki harfdinki, xaloyiqiboratida voqi'durur va ulus kitobatida shoyi', to'rt harfg'a taarruz qilmaydururlar. Chun so'z arusi nazmharirining matbu' kisvatin va mavzun xil'atin kiyib, jilva og'oz qilsa, huqqayi yoquti dog'i o'ttizikkitagavhardin qachonkim to'rtig'a nuqson voqi' bo'lsa, muqarrardurkim, jamolig'a andinkusurvakalomig'a andin futur voqi' bo'lg'usidurur.

Sho'xeke, o'kush husnu jamol o'lg'ay anga, Bir husn yana husni maqol o'lg'ay anga.

La'li aro durlarida gar bo'lsa kusur, So'z derda kerakkim, infiol o'lg'ay anga.

Bu jihatdin ul to'rt harf gavharlarin dog'i o'zga huruf javohiri silkiga tortib, g'azaliyotni o'ttizikkiharf tartibi bila murattab qilindi. Bu so'zlar orqali shoir fors va turk tillaridagi to'rtta "p", "ch", "g", "j" harflarini qo'shib, jami 32 harfga g'azal bitganini va devoniga kiritgani haqida aytib o'tgan. Devon nafaqat ijodorning o'zi tomonidan, balki boshqalar tomonidan hamtuzilishi mumkin. Misoluchun, Navoiyning "Ilk devon"i shoirning muhlislari tarafidan tuzilgandir.

Devonga 391g'azal, 41ruboiy, 1 mustazod, 1 muhammas - jami 434 ta she'r kiritilgan. Asarga shoirning yoshlikdavridagibarcha she'rlari kiritilgan. Bu qimmatbaho asarni Hamid Sulaymon aniqlab, u haqida qimmatli ma'lumotlar bergan: "Qo'lyozma xati yirik klassik nasta'liq uslubida, Xurosonning oliy sifat ipak qog'oziga qorasiyohdayozilgan. Ko'chirilgan har bir sahifa lojuvard, pistoqi, yashil, samoviy, novvotrang, qirmizi, za'faronranglarga bo'yalgan. Kitob hoshiyalari boshqa, qalinroq qog'ozdan yasalib, barcha hoshiyalarigaturlibo'yoqlar bilan gul va daraxt barglaridan naqshlar ishlangan. Naqshlar orasiga turli-tumanhayvonlarvaqushlar rasmi chizilgan. Devonning boshlang'ich to'rt beti oltin suvi va rang-barang bo'yoqlarda g'oyat nafis naqshlarbilan bezalgan. Ikki ustunda yozilgan barcha she'rlar yakkama-yakka zarhal jadvallar bilano'ralgan. G'azal va ruboiylar odatga ko'ra alifbo tartibida joylashtirilgan. Barcha varaqlardagi poygirlargako'raqo'lyozma to'liq saqlanib kelgan, yirtilgan, surkalgan, dog'langan varaqlar hamuchramaydi. Kitobningdastlabki muqovasi yo'qolib, keyinchalik sariq kimxob qoplangan karton muqovaga olinganliginihisobga olmaganda, nusxa nuqsonsiz, juda yaxshi saqlangan desa bo'ladi. Qo'lyozmaningoxirgibetlaridagi ko'rsatkichda avval nomlar arab grafikasida, qavs ichida shu so'zning transliteratsiyasi, undan so'ng varaqlar soni, uning yonida satrlar sirasi ko'rsatilgan".

Hazrat Alisher Navoiy vafotidan to'rt oy o'tib, 1501-yil may oyida uning 130 she'ridan iborat bir to'plam qo'lyozma shaklida ko'chirilgan. Biz surati orqali ayni devon bilan tanishish sharafiga muyassar bo'ldik. Bu Navoiy ixlosmandlarining eng dastlabki to'plami - "Terma devon"dir. Uni "Navoiyning 1501-yilgi "Terma devoni" nomi ostida navoiyshunoslikka olib kirish lozim deb hisoblaymiz.

Alisher Navoiy devonlari qo'lyozmalari O'zbekiston va jahonning turli davlatlari kutubxonalarida saqlanmoqda. Keyingi yillarda xorijdagi qo'lyozma fondlarida saqlanuvchi devonlarining yangi qo'lyozma nusxalari aniqlanib, ilmiy muomalaga olib kirilayotir. Masalan, ushbu devonlarga kirgan she'rlar tarkibi aniqlanmoqda. Deylik, 2022-yili Alisher Navoiy "Badoye' ul-bidoya" devonining ikkita nusxasi tarkibi qanday ekanini bilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Gap shundaki, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi Oysara Madaliyeva "Badoye' ul-bidoya" asarining Erondagi Mashhad shahri kutubxonasida saqlanayotgan nusxasini, Turkiyaning Karabuk universitetida ustozlik qilayotgan o'zbekistonlik olim Saidbek Boltaboyev esa Tehron shahridagi Eron Milliy kutubxonasidagi nusxasini aniqladi. Mazkur asarning Mashhaddagi nusxasi 1491-yili, Tehrondagisi esa 1501-yili ko'chirilgan. Shu tariqa "Badoye' ul-bidoya"ning Alisher Navoiy hayotligi davrida ko'chirilgan nusxalari soni sakkiztaga yetdi. Mazkur manbashunos olimlarning sa'y-harakatlari tahsinga loyiq.

"Terma devon" uchun she'rlarni "Xazoyin ul-maoniy"dan saylab olinishi sabablarini izlab ko'rish lozim. Nima uchun aynan "G'aroyib us-sig'ar"dan ko'p she'r tanlab olingan-u, "Favoyid ul-kibar"dan birorta ham she'r olinmagan? "Terma devon"dagi g'azallarning bir qismi "Xazoyin ul-maoniy"dagi hajmidan qisqartirilgan. Navoiy g'azallari matnlarini qisqartirish holati uning ixlosmandlari tomonidan tuzilgan "Oqqo'yunli muxlislar devoni"dagi she'rlarda ham uchraydi. Turkiyalik olim Tanju Seyxan g'azallar hajmini kichraytirib berish usmonlilar va oqqo'yunlilarda an'ana bo'lgan, degan fikrni bildirgan edi.

Oqqo'yunlilar saltanati (1378-1501) qisman hozirgi Turkiyaning sharqi, Armaniston, Ozarbayjon, shimoliy Iroq va Eron hududlarida hukmronlik qilgan o'g'uz turklariga mansub

ekanligi ma'lum. Turkmon deganda esa o'sha davrlarda yashagan o'g'uz turklari tushnilgan. Bu so'zni Alisher Navoiy ham "Farhod va Shirin" dostonida ayni ma'noda qo'llagan:

*Olibmen taxti farmonimg'a oson,
 Cherik chekmay Xitodin to Xuroson.
 Xuroson demakim, Sheroz-u Tabrez
 Ki, qilmishdur nayi kilkim shakarrez.
 Ko'ngul bermish so'zumga turk jon ham,
 Ne yolg'uz turk, balkim turkmon ham.*

Tilga olingan kutubxona tavsifida "Devoni turkmononi Oqqo'yunlu" nomi qaysi asosda qo'yilgani (qo'lyozma naqshlari, qo'lyozma yozuvi uslubi yoki boshqalar asosidami) aytilmagan. "Terma devon"dagi Navoiy she'rlar majmuasi "Oqqo'yunli muxlislar devoni"dagi kabi shoir g'azalining:

*Ey, safhai ruxsoring azal xattidin insho,
 Debochayi husnungda abad nuqtasi tug'ro –*

bayti bilan boshlanadi. Bu bayt dastlab Alisher Navoiyning "Badoye' ul-bidoya", keyinchalik "G'aroyib us-sig'ar" devonlarida keltirilgan. Lekin bu ikki devon ayni bayt bilan boshlanmagan, mazkur bayt uchinchi o'rinda kelgan.

Alisher Navoiy hayotligi davrida (1471-yil) uning Oqqo'yunlilar saltanatidagi muxlisleri tomonidan "Oqqo'yunli muxlislar devoni" tuzilgan edi. Undagi g'azallar tilida shoir she'rlarini o'g'uzlashtirish holati yaqqol sezilib turadi (masalan, "topmadim" so'zi o'rniga "dopmadim"). Ko'rib o'tayotganimiz qo'lyozmada esa bunday jihat yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Vaholanki, bu majmuadan 30 yil avval tartib berilgan "Oqqo'yunli muxlislar devoni"da bunday holat mavjud edi.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, Alisher Navoiy devonlarining muxlislar tomonidan tuzilgan variantlari shoir merosini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu devonlar orqali Navoiy asarlarining turli nusxalari, matniy farqlari va ayrim qo'shimcha bayt hamda asarlar aniqlanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, muxlislar tomonidan tartib berilgan devonlarda matnshunoslik nuqtayi nazaridan qimmatli ma'lumotlar jamlangan bo'lib, ular shoir ijodining yanada to'liq va mukammal tiklanishiga xizmat qiladi. Ayrim tafovutlar esa asarlarning ko'chirilish jarayoni, davr o'ziga xosliklari hamda tuzuvchilarning didi va yondashuvi bilan izohlanadi. Shu bois, bunday devonlarni chuqur o'rganish nafaqat Navoiy merosining ilmiy asosda tadqiq etilishiga, balki o'zbek adabiyoti tarixini yanada boyitishga ham katta hissa qo'shadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 1-tom. Badoyi' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987.–B. 20.
2. Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 1-tom. Badoyi' ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987.–B. 21.
3. Abduqodir Hayitmetov. *Navoiy lirikasi*. – Toshkent: Fan.
4. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashrlari: Navoiy asarlariga oid ilmiy tadqiqotlar to'plami.

5. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
6. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
7. <https://iaau.uz/oz/news/2944>